

EL QALBIDA TOPDINGIZ E'ZOZ, BORLIQ SIZNI QUTLAYDI, USTOZI!

Kuni kecha matbuotda «O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risi»da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi.

Mukofotlanganlar orasida Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi 45-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining matematika va informatika fanlari o'qituvchisi Dilorom Mamasharipova «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» degan yuksak unvon bilan taqdirlandi. Biz ustozni shogirdlari va «Tong yulduzi» gazetxonlari nomidan muborakbod etamiz.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika
bolalar kutubxonasi va «Tong yulduzi» gazetasi
hamkorligida an'anaviy

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

respublika ijodiy ishlar tanlovi
g'oliblari aniqlandi

(2-bet)



O'QITUVCHI – KELAJAK BUNYODKORI

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Istiqlolimizning ilk yillaridanoq xalq ta'limi sohasiga katta e'tibor qaratdi. Shu bois, bugun o'g'il-qizlarimiz bilim cho'qqilarini puxta egallab, nufuzli tanlovlarda yuksak marralarni qo'lga kiritmoqdalar. Prezidentimiz orzu qilganlaridek, hech kimdan kam bo'lmagan, boshini baland ko'tarib yashaydigan, Vatan taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor barkamol avlod maydonga chiqdi.

Bu kabi yutuqlarda, albatta, hayotimiz bog'boni, umrimiz charog'boni bo'lgan fidoyi o'qituvchi va murabbiylarning xizmati tahsinga loyiq. Ularni har qancha maqtasak, sharaflasak, e'zozlasak ozdek tuyulaveradi.

Kuni kecha «O'qituvchi va murabbiylar kuni» umumxalq bayrami munosabati bilan Xalq ta'limi vazirligining Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida «O'qituvchi – ilm va ma'rifat, ta'lim va tarbiya fidoyisi» mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda Xalq ta'limi tizimidagi ustoz va murabbiylarni qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini munosib rag'batlantirish yo'lida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Dilshod Kenjayev alohida to'xtaldi.

Shuningdek, anjumanda O'zbekiston Qahramoni, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi Muhabbat opa Sharapova so'zga

chiqib, 45 yillik ish faoliyatining 25 yili Mustaqillik davriga to'g'ri kelganligi, bugungi kunda yuzdan ortiq shogirdlarining 7 nafari bilan ayni paytda bir jamoada faoliyat yuritishayotgani haqida faxr bilan aytib o'tdi. Muhabbat opa o'z ustozlarini eslar ekan, ular ham shogirdlariga bor bilimini, mehr-muhabbatini, qalb qo'rini bergani, biroq hech bir mehnatlari rag'batlantirilmaganini achinib esladi.

– Shukurki, yurtimiz mustaqillikka erishgach, eng avvalo, ustoz-murabbiylarning mehnatlari ardoqlandi, e'zozlandi, ular orasida men ham borligimdan faxrlanam. Shu bilan birga, zimzamda davlatimiz oldida katta qarzdorlik hissi borligini sezib turaman va bor kuch-g'ayratimni ona Vatanimizning kelajagi bo'lmish yosh avlodga bag'ishlashga tayyorman, – dedi ustoz Muhabbat opa.



Institutda bir yilda o'rtacha 5750 nafar tinglovchi malaka oshirish kursini, 250 nafar tinglovchi esa qayta tayyorlash kurslaridan o'tadi.



A n - juman ishtirokchilari, shuningdek, institut faoliyati, unda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning «Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga asosan Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti o'z binosiga ega bo'ldi.

Institutning barcha xonalari yangi mebellar va texnika vositalari bilan jihozlandi. Bu yerdagi 263 ta kompyuterdan 138 tasi internet tizimiga ulangan. 7 ta kompyuter sinfi, 16 ta videoproyektor, 10 ta interaktiv elektron doska mavjud.

Institutda har bir fan kurslarining o'quv-mavzu rejaları va o'quv dasturlari takomillashtirildi. Jumladan, 8 soatdan «Ingliz tili» fani, 18 soat «Fanni o'qitilishida pedagogik texnologiyalar», 12 soat «Fanni o'qitilishida axborot texnologiyalari» kurslari kiritildi.

Bu kabi ezgu ishlar negizida, eng avvalo, yangi avlodni tarbiyalash, kelajagi buyuk davlatni barpo etish masalasi turadi.

Feruz SOYIBJON qizi



– Institutda bir qator darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar mualliflari, professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatadi. Ular har bir dars mashg'ulotlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib boradilar, – deydi iqtisod fanlari nomzodi Nodir Ortiqov.



«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

**respublika ijodiy
ishlar tanlovi g'oliblari
aniqlandi**

(Davomi. Boshi 1-betda)

TASVIRIY SAN'AT YO'NALISHI BO'YICHA:

1-o'rin – Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 24-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Nazira Sherniyozovaga;

2-o'rin – Navoiy viloyati, Navbahor tumandagi 12-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Maftuna Qosimovaga;

3-o'rin – Toshkent shahridagi 327-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Usmonxo'ja Muxtorxo'jayevga berildi.

NAZM YO'NALISHI BO'YICHA:

1-o'rin – Jizzax viloyati, Jizzax tumandagi 23-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Durdono Nurmatovaga;

2-o'rin – Navoiy viloyati, Navbahor tumandagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Lobar Ma'diyevaga;

3-o'rin – Farg'ona viloyati, Yozyovon tumandagi 29-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Xushrumo Komilovaga berildi.

NASR YO'NALISHI BO'YICHA:

1-o'rin – Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 13-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Nilufar Yoqubovaga;

2-o'rin – Xorazm viloyati, Gurlan tumandagi 41-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Madina Jumaboyevaga;

3-o'rin – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumandagi 28-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Shirin Karimboevaga berildi.


G'oliblari homiylar tomonidan ajratilgan qimmatbaho sovg'alar hamda Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan diplom bilan taqdirlanadilar.

G'oliblarni qutlaymiz!

Murojaat uchun telefon: (0 371) 236-79-70.

Tarixdan so'zlovchi muzeylarimiz bizning bitmas-tuganmas boyligimiz, desak mubolag'a bo'lmaydi.

MOZIY KO'ZGUSI



Qadimiy shaharlar Xiva, Samarqand, Buxorodagi muzeylarga boganda, boy tariximiz ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Mustaqil hur O'zbekistonda yashayotganimizga shukronalar aytishga undaydi. Qadimgi zamonda ishlatilgan har bir buyum juda qiziq va bebaho. Maktabda tarix fanidan olgan bilimimizni yanada boyitish maqsadida sinfdoshlarim bilan tez-tez muzeyga borib turamiz. Shu ma'noda Shonshuhrat muzeyi kichik bo'lsa-da, Jizzax viloyati, G'allaorol tumanining boyligi hisoblanadi. Unda tumanimizning tarixi bilan yaqindan tanishish mumkin.

Unda tumanimizdagi taniqli shoira Lola O'roqova, Qarshi davlat universiteti dotsentlari va xonanda Farhod Saidov qatnashishdi. Qizg'in kechgan suhbat chog'ida o'quvchilar mustaqillik yillarida yaratilgan keng imkoniyatlar, ta'lim, sport sohasida erishilgan yutuqlar to'g'risida fikr-mulohazalarini bildirishdi. Mehmonlar o'quvchilarga tinchlik, mustaqillik, ona Vatanimiz ravnaqi yo'lida olib borilayotgan ishlar to'g'risida so'zlab berishdi. Maktabimiz direktori Erkin Shokirov anjuman ishtirokchilariga alohida minnatdorchilik bildirdi.

Durdona RAVSHANOVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
27-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

ONAJONI M, QAYDASIZ?

Hakimjon jurnaldan «Erkatoylik baxti» nomli hikoyani o'qib:

– Nega, nima uchun? Nima gunoh qildim? Oyijon, dadajon, meni olib keting, iltimos, – degancha yum-yum yig'lab yubordi. Uning yonida rasm chizib o'tirgan do'sti Sanjar o'rnidan turdi-yu, hovliqib Hakimning qo'lidagi jurnalni olib, tezda matn sarlavhasini o'qidi. O'qidi-yu:

– Eh, do'stim, qo'rqitib yubording-kul Biron gap bo'libdimi, deb yuragim yorilayozdi. Qo'y, yig'lama o'rtoq, ular ko'z yoshingga arzimaydi. Yig'lash o'rniga, kelajakdagi orzularing haqida o'yla, ushalihsiga harakat qil.

– Sanjar, o'rtoqjon, sabrim yetmayapti! Onajonimni, dadajonimni sog'inib ketdim. Boshqa bolalar singari mening ham o'z ota-onam bo'lishini xohlayman. Men ham kechalari onajonimni ko'ksiga bosh qo'yib, uxlagim keladi. Dadamni yonida turib, suyanchig'i bo'lsam, deyman. Meni nogiron deb o'ylab, olib ketishmayaptimi? Yo'q, men unaga emasman. Olib keting, onajon, qayerdasiz?

Ikkala do'stning suhbatini bo'lib, mehribonlik uyining direktori Malika Ikromovna xonaga kirib qoldi.

– Hakimjon, seni olib ketishgani kelishibdi, – deyishi bilan bolakay yugurganicha tashqariga chiqib ketdi. Uni direktorning xonasida turmush qurganiga 5-6 yil bo'lgan er-xotin kutib turishardi. Ularni ko'rgan Hakimjonning yuzidagi cheksiz quvonch olovga suv sepandek o'chdi. Uning orqasidan halloslaganicha yugurib kelgan direktor ham hayron, hozirgina quvonib chiqib ketgan bola birdan jiddiy bo'lib qolibdimi?

– Nima bo'ldi? – so'radi direktor.

– Ular ota-onam emas-kul! Meni ota-onam kelganda chaqiring, – dedi-da, tashqariga chiqib ketdi...

Shavkat KAZAKBAYEV

GAZETAMGA OBUNA BO'LDIM

**Assalomu
alaykum, «Tong
yulduzi» gazetasi tahririyati
xodimlari! Men bir necha
yillardan buyon gazetaning
muxlisiman.**

Har bir sonini intiqlik bilan kutib, sahifalarini qiziqib o'qiyman. Ayniqsa, so'nggi sahifada yoritiladigan «Mantiqiy savollar», «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!», «Testlar», «Bu qiziq!», «Pazanda qizga!» ruknlari ostida beriladigan materiallarga juda qiziqaman. Shuningdek, tengdoshlarimning she'r, maqolalari, erishgan yutuq, zafarlari haqida o'qib, quvonaman.



Sevimli gazetamizning 5-sahifasida muntazam berib borilayotgan «Ingliz tili saboqlari»ni qunt bilan o'qiyman. Matnlarni mustaqil tarjima qilishga harakat qilaman. Buning natijasida chet tilini o'zlashtirish borasida bilimimni oshirib bormoqdaman.

Aytmoqchi, kelgusi yil uchun ham «Tong yulduzi»ga birinchilar qatorida obuna bo'ldim. O'ylaymanki, yangi yilda ham uning sonlari yanada qiziqarli bo'ladi. Tahririyat xodimlari va tengdoshlarimga omad tilab qolaman.

Asalbonu RAJABALIYEVA,
Toshkent viloyati, Bekobod
tumanidagi 31-umumta'lim
maktabining 9-«B» sinf
o'quvchisi

KIM EDIG-U KIM BO'LDIK?!

**Yaqinda maktabimizda shu mavzuda
qiziqarli tadbir bo'lib o'tdi.**

Unda tumanimizdagi taniqli shoira Lola O'roqova, Qarshi davlat universiteti dotsentlari va xonanda Farhod Saidov qatnashishdi. Qizg'in kechgan suhbat chog'ida o'quvchilar mustaqillik yillarida yaratilgan keng imkoniyatlar, ta'lim, sport sohasida erishilgan yutuqlar to'g'risida fikr-mulohazalarini bildirishdi. Mehmonlar o'quvchilarga tinchlik, mustaqillik, ona Vatanimiz ravnaqi yo'lida olib borilayotgan ishlar to'g'risida so'zlab berishdi. Maktabimiz direktori Erkin Shokirov anjuman ishtirokchilariga alohida minnatdorchilik bildirdi.

Tadbir so'nggida sevimli xonandamiz Farhod Saidov o'zining ajoyib qo'shiqlarini ijro etib, barchaga xursandchilik ulashdi.

Anvarjon ABDULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
4-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf
o'quvchisi

A'LOGA BAHOLANGAN INSHO

Darsga qo'ng'iroq chalindi. Hamma-miz chug'urlashib sinfga kirdik. Ustozimiz yo'qlama qilganidan keyin:

– «Mening oilam» mavzusida insho yozamiz, – deya vazifa berdi. Hamma insho yozishga kirishib ketdi. Shunda eshik ochilib sinfdoshimiz Anvar uzr so'rab kirib keldi. Negadir kiyimlari dazmol-lanmagan, yuzlari so'lg'in edi...

– Mayli, o'tiraqol, tezroq daftaring-ni olib, oilang haqida insho yozgin, – dedi ustoz.

Shu sinfdoshimiz tortinchoq, bolalarga qo'shilmay yuradi, xayolparast. Ammo matematikadan juda kuchli. Tenglamalarni bir zumda yechib tashlaydi-da, deraza tarafga qarab xayol surib o'tiradi. Negadir unga rahmim keladi. U menga do'st sifatida juda yoqadi.

Sinfdoshlarim tanaffusga yaqin insholarini topshirib, sinfdan birin-ketin chiqa boshlashdi. Men Anvar tomonga qarab, uning daftariidagi qisqagina yozuvga ko'zim tushdi. Qiziq, nima deb yozganini juda bilgim keldi. Nihoyat, u inshosini ustozning stoli ustida qoldirdi.

Matematika darsida ham Anvarning chehrasi ochilmadi. Darsga befarq bo'lib, xayol surib o'tirdi. Tanaffusda adabiyot o'qituvchimiz Dildora opaning yonlariga

bordim-da:

– Ustoz, sizga qarashib yuboraymi? – dedim sekingina.



– Yaxshi bo'lardi, – dedi ustoz.

Men daftarlari orasidan Anvarning inshosini topdim-da, unga ko'z yugurtirdim. Unda shunday satrlar bor edi:

«Men oilada uchinchi farzandman. Ikki opam bor. Oilamizdagilarning o'zaro mehr-oqibatli, tinch-totuv yashashlarini, onaizorimning yuzlaridan tabassum arimasligini istayman. Kelajakda oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, yaxshi kasb egasi bo'laman. Shunda oilamdagilar men bilan faxrlanishadi. Onamning armonlari ushaladi, deb yozilgan edi. Inshoni Dildora opaga ko'rsatdim. Ustoz uzoq o'yg'a tildi. Ko'zlarida yosh halqalandi. So'ng barmoqlari titragancha daftarga a'lo baho qo'ydi.

Manzura UBAYDULLAYEVA



Tabiat qo'yniga sayohat

Mam-lakatimizning so'lim go'shalaridan sanalmish Farg'ona viloyatida ham turizm, ichki va ekoturizmni keng rivojlantirish hamda hududga kelayotgan xorijiy sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatda keyingi yillarda ekoturizmning sezilarli darajada rivojlanishi bois, sayyohlarning tabiat qo'ynida maroqli hordiq chiqarishi, nabotot va hayvonot olamining nodir namunalarini bilan yaqindan tanishishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Endilikda farg'onalik yoshlar uchun tashkil qilinishi mumkin bo'lgan 320 dan ortiq ekoturistik yo'nalishlar mavjud. Yoshlarning muhofaza etiladigan

tabiiy hududlar, tabiiy va tarixiy, me'moriy va arxeologik yodgorliklarga sayohatini tashkil etish, ular bilan tanishtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqinda Farg'ona viloyat tabiatni muho-

faza qilish qo'mitasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi hamkorligida Farg'ona shahridagi umumta'lim maktablari o'quvchilarining «Yozyovon cho'llari» muhofaza etiladigan tabiiy hududiga ekskursiyasi tashkil etildi. Sayohat chog'ida o'quvchilar mazkur hudud Farg'ona uchun tipik bo'lgan qumli cho'l landshaftlarini saqlab qolish, boyitish va muhofaza qilishda asosiy vazifani bajarishi, o'tgan yillar davomida tabiat yodgorligi hisoblangan ushbu manzilning o'simlik va hayvonot dunyosi tiklanib, yanada boyitilgani haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Umumiy maydoni 1820 gektardan ortiq bo'lgan hududda hozirda «Qizil kitob»ga kiritilgan jonzoatlarning bir necha turi saqlanayotgani o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Xurshida SULAYMONOVA

Do-re-mi-fa... Bu notalar sizlarga oldindan tanish-a, aziz o'quvchilar?! Mashhur bastakorlar logann Bax, Motsartning tanliq simfonyalari, mahzun va mumtoz kuylarimizdan «Munojot», «Cho'li Iroq», dillarni quvnatuvchi «Dilxiroj»-u «Andijon polka»si... Bu kuylar Namangan viloyatining Chust tumanidagi 15-bolalar musiqa va san'at maktabida doim taralib turadi. San'atga qiziquvchi iqtidorli o'quvchilarni o'z bag'riga olgan ushbu musiqa va san'at oshiyoniga Muhiddin aka Otaxo'jayev rahbarlik qiladi. Ular bilan suhbatimiz shogirdlarining erishayotgan yutuqlari haqida bo'ldi.

— Maskanimizda 275 nafar o'quvchi fortepiano, o'zbek xalq cholg'ulari, torli cholg'ular, estrada xonandaligi, an'anaviy xonandalik, damli va zarbli cholg'ular, xoreografiya hamda tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha tahsil oladi. Ta'lim maskanimiz barcha o'quv jihozlari, cholg'u asboblari bilan to'liq ta'minlangan. Bu yerda tahsil olayotgan o'quvchilarning yutuqlari ham maqtasa arzigulik. Jumladan, «Navro'z sadolari» I Xalqaro milliy cholg'ular orkestri va ko'p ovozi ansambllar festivalining viloyat bosqichida maktabimizning «G'ijjakchilar kvarteti» hamda «Navo» xalq cholg'ulari orkestri faxrli 1-o'rinni egallagan bo'lsa, Toshkent shahrida o'tka-



Sovrindorlar Safida Dobitmiz

zigan bosqichida «G'ijjakchilar kvarteti»ga 3-o'rin nasib etdi. «Navo» xalq cholg'ulari orkestri esa festivalning faxriy yorlig'i hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining «San'at» yo'nalishi bo'yicha Respublika tanlovining viloyat bosqichida «Tasviriy san'at» yo'nalishi bo'yicha maktabimiz o'quvchisi Abduljalil Qovuljonovning 2-o'ringa sazovor bo'lgani barchamizni birdek quvontirdi. An'anaviy tarzda o'tkaziladigan «Yagonasan, muqaddas

Vatan!» Respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida «Estrada» yo'nalishi bo'yicha Isomiddin Abdug'afforov 3-o'ringa munosib topilib, ishonchimizni oqladi. Navoiy shahrida o'tkazilgan Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining «Akademik va estrada ijrochiligi» Respublika tanlovida Fortepiano yo'nalishi bo'yicha Omina Odilova 2-darajali diplom bilan taqdirlanishi uning tengdoshlariga ham namuna bo'ldi. Har bir tanlovdagi bolalarning yutuqlari boshqa o'quvchilarga ham qanot bag'ishladi. Naman-

gan shahrida o'tkazilgan «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» ko'rik-tanlovida O'zbek xalq cholg'ulari orkestri hamda O'zbek xalq cholg'u asboblari ansambli faxrli 1-o'rinni egallashi fikrimizning yaqqol dalilidir. O'quvchilarimizning bunday yutuqlarga erishishlarida maktabimizning ilg'or o'qituvchilaridan Ayubjon Oripov, Lolaxon Valixo'jayeva, Davron Xolmatov hamda Nodira Maqsudovaning hissalar katta. Tajribali ustozlar o'quvchilar bilan tinimsiz ishlab, ularning bilim va malakalarini mustahkamlashda astoydil izlanmoqdalar, — dedi Muhiddin aka g'urur bilan. **Musiqa va san'at maktabi o'quvchilarining bugungi kungacha qadar qo'lga kiritgan yutuqlari anchayin salmoqli. Bu dargohda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarning orzulari ham osmon qadar. Ular yutuqlarini bundan-da ko'paytirib, maktab sha'nini munosib himoya qilishga bel bog'lashgan. Biz ularning orzulari yuksaklarga bo'ylashiga, parvozlari ko'klarni quchishiga tilakdoshmiz.**

Ozoda TURSUNBOYEVA



LESSON 107

Grammar corner

WE REPEAT THE ALPHABET (Alifboni qaytaramiz)

There are 26 letters in the English alphabet:

A a [ei] ant



B b [bi:] bear



C c [si:] cow



D d [di:] dog



E e [i:] elephant

F f [ef] fox



G g [dʒi:] goat



H h [etʃ] hippopotamus



I i [ai] iguana



J j [dʒei] jellyfish



K k [kei] kangaroo



L l [el] lobster



M m [em] mouse



N n [en] nightingale



O o [əʊ] owl



P p [pi:] panda



Q q [kju:] quetzal



R r [a:] rabbit



S s [es] seal



T t [ti:] turkey



U u [ju:] umbrella



V v [vi:] vulture



W w [dʒəʊ:] wolf



X x [eks] x-ray tetra



Y y [wai] yak



Z z [zed/zi:] zebra



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

There are 5 vowels (unlilar) – a, e, i, o, u (sometimes y), others are consonants (undoshlar).

Homework:

Dear our new, clever pupils learn by heart the alphabet and spell (harflab ayting) your name or words which you studied in English already, with this way you may easy remember (eslab qolasiz) the pronunciation (talaffuz) of the letters.

For example: M-A-D-I-N-A

Your teacher DINORA

ADVERB OR VERB?

(Ravishmi yoki fe'l)

Complete the circles using these words: quickly, live, sweetly, badly, tomorrow, sit, loudly, drink, draw, early, friendly, speak, today, wear, watch.

Verb

Adverb

Dilhayotkhon ERKINOVA, Tashkent region, Angren district

Cardinal and Ordinal numbers

LET'S COUNT TOGETHER! (Keling, birga sanaymiz!)

Numbers in English

Cardinal numbers (Sanoq sonlar) are used for counting. Cardinal numbers tell us «how many.» e.g. There were three cars in the race.

Ordinal numbers (Tartib sonlar) are used for putting thing in order. The ordinal number tells the position of Tom's car in the race.

e.g. Tom placed **second** in the race. His car was the second car to cross the finish line. One car crossed the finish line before his car, and one car crossed the finish line after his car.

Cardinal	Ordinal	Ordinal Abbreviations
one	first	1st
two	second	2nd
three	third	3rd
four	fourth	4th
five	fifth	5th
six	sixth	6th
seven	seventh	7th
eight	eighth	8th
nine	ninth	9th
ten	tenth	10th

Separate the cardinal and ordinal numbers:



Nineteen
Thirty-sixth
Seven
Eighty
Sixty one
Fifth
Eleven
Seventeenth
Twelfth
Forty four
Twenty ninth
Sixth

Dono AHMEDOVA

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

**Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi**

QISHLOG'IMIZNI BO'RILAR BOSDI

Ha, ha, qishlog'imizni rostdanam bo'rilar bosdi. Bobolarning aytishicha, har o'ttiz yilda bir bosar ekan. Bosganda ham qo'y-qo'zilarga qiron keltirarkan.

Qishlog'imiz Qatron tog'i etaklarida emasmi, toqqa qalin qor yog'di deguncha, semiz qo'ylar qayda bor, deb bo'rilar qishloqqa oralarkan. Bir gal ular kolxozning dashtdagi qo'rg'oniga hujum qilindi. Gazandalar yetti paxsa devordan oshib o'tib, ikki arslon itni o'ldirib, o'ttizta qo'yni bo'g'izlab ketgan ekan.

Qishloqqa qalin qor yog'di. Tog'larga esa undan ham ko'p. Buning ustiga Konibodom shamolini aytmaymiz, siz bu shamolning nimeligini bilmaysiz. Guv-guv deb devlarning ovozigina o'xshatib, vahimali tovushlar chiqarib, daraxtlarning shoxini bir-biriga urishtirib, uylarning tomidagi mo'rilarini uchirib ketadigan shamol bo'ladi. Agar uyda yolg'iz qolgan-da mana shunaqangi shamollar essa-chi, tomlar-da devlarmi, alvastilarmi, ajinalarini chiy-chiylab, g'iy-g'iyab o'yinga tushayotgandek bo'laveradi.

Biz bolalar shamol va sovuqdan qo'rqib, uy-uyimizga qamalib olganmiz. Tashqarida sovuqdan qotib qolasan, deb onajonlarimiz ko'chaga chiqarishmaydi.

Uch-to'rt kun ko'chaga chiqolmay uyda o'tirdim. Zerikib ketdim. Zerikkanda-chi, Abduxalil ikkovimiz arzimagan narsaga urishib qolaveramiz. Men urishmaylik deb Dono singlimni o'ynatib, ovuntirib kelish bahonasida qalin ko'rpachalarga o'rab Xo'jaxon ustaning xonasiga bordim. Ustaning o'rtasiga olov yoqiladigan mehmonxonasi liq to'la odam. O'rtaga gurillatib olov yoqishgan. Odamlar kechasi bo'rilar hujum qilgan Sab-

riniso xolani ko'mib kelishgan ekan. Bilasiz-ku, gap poylashni yaxshi ko'raman. Diqqat qilib o'tiribman, o'rtoqlarimdan o'rik yeb yuradigan No'monxon, bo'yi novcha Toshtemir, qiziqchi Akrom, chatoq-chatoq deb gapiradigan Yunusali - hammalari ham shu yerda ekan. Ular ham kattalarning gapiga quloq solib o'tirishibdi.



**TAGOB QISHLOQ
ERTAKLARI**

- Ha, bu ham taqdir ekan-da, - deyapti soy bo'yi brigadasining rahbari, - nima qilamiz, ko'mdik, boshqa iloji yo'q.

- Yo'q, Barotvoy bolam, sen bu dahshatli voqeani bir boshdan gapir, mana bu ko'zlarini mo'tillatib o'tirgan bolalarga saboq bo'lsin, - deyapti Esonqul bobo.

- Insonning ajali yetrsa, o'zi sababchi bo'larkan, - boboning gapiga quloq solmay so'zida davom etayapti, - Sabriniso brigadamdagi ayollar ichida eng mehnatkashi, eng bolaparvari, quvnog'i edi. Ayollar tushlikka chiqsa, yaxshi-yaxshi gaplar aytib hammasining ko'nglini ko'tarardi. Birovning

eri o'lgan, birovning suyuqli yoridan qora xat kelgan. Hammasiga loyiq gaplar toparidi...

- Hoy, Barotvoy, qulog'ing og'irimi deyman, men senga bo'ladigan gapni ayt deyman, - jerkibroq dedi Esonqul bobo.

- Bo'ladigan gap shuki, - boshini chayqab uf tortib oldi brigadir amaki. Qaynotasi bir xalta bug'doy tashlab ketgan. Nabiralirim, otasi batalyonga ketgani uchun och o'tiribdi, shularga un qilib, non yopib bergin, deb aytib ketgan ekan.

- Qaynotasi deganing bu Qo'chqor polvonmi? - yana gap qo'shdi Esonqul bobo.

- Gap qo'shmay turinglar, adashib ketayapman...

- Sabrinisoning bolalari och ekan. Kechqurun men sizlarga non yopib beray, deb katta o'g'lini ukalariga bosh qilib qoldirib, o'zi tegirmonga ketgan ekan.

O'g'li kattagina bo'lib qolgan ediku, - yana kimdir gap qo'shib qoldi.

Jim bo'l deyapman. Xullas, ajal ko'zini tikib turgan ekan. Tegirmonda navbat ko'p. Tegirmonchi bir so'zli. Qaysar odam. Tegirmon navbati bilan deb hech kimga yon bermaydi.

Kim biladi devona chol shu ayolni navbatdan tashqari ishini bitirib jo'natganda bu voqea bo'lmas edimi... Navbati kelganda elyotar bo'lgan ekan. Sabriniso bolalarim och borib hech bo'lmasa qotirma pishirib beray deb uyiga shoshibdi-da. Bechora ayollar shunaqa bo'ladi, bolam deb o'tdan ham suvdan ham tap tortishmaydi. O'lsam bolam deb o'laman, deydi. Bechora Sabriniso hamisha ikki kishining ishini qilardi. Bittasi o'zim uchun, bittasi och o'tirgan bolalarim uchun, deb ishlardi. Ha, uning peshonasida shunaqa taqdir yozilgan ekan. Tegirmondan ko'pam uzoqqa ketmagan ekan, nari borsa uch-to'rt yuz qadam nariga borgan ekan... Changalzordan chiqqan bo'rilar hamla qilganga o'xshaydi...

(Davomi bor)

O'shanda ilk bor otam bilan bozorga borgan dim. Regar bozorida

qo'lidagi qandga qayrilib ham qaramaydi. Negadir, sotuvchi amakining qo'lidagi qand ko'zlarimga cho'g'dek ko'rinadi. Uning ta'mini totgim keladi. Buni sotuvchi amaki sezdi shekilli, qo'liga bir juft qand tutqazdi. Qandni oldim, ko'zlarim quvnadi. Otam bu ishimdan qattiq ranjidi. Qo'limdagini shartta yulib oldi-da, sotuvchining oldiga qo'ydi. Amaki izza bo'lgandek dedi:

PECHAKQAND

(Voqeiy hikoya)

- Men roziman, qo'ying, bola yesin. Otam avval menga, keyin sotuvchiga yovqarash qilib:

- Qandni uyga borganda yeydi... - dedi. U kishi boshqa gapirmadi. Rosa qand yegim kelgandi...

Biz o'sha kuni ancha shirinliklar xarid qildik. Ammo bozordan xarid qilganlarimizning bironitasini ham ta'mini tatib ko'rmadik. Uyga kayfiyatsiz qaytdim. Onam oldimizga dasturxon yozdi. Olib kelgan bo-

zorligimizdan dasturxonni to'ldirib qo'ydi. Bugungi dakkidan hanuz ko'nglim yorishmay turganini payqagan otam, ocharchilik yillari ilk bor otasi bilan bozorga borgan haqidagi hikoyani so'zlab berdi.

- Men o'shanda sendan ham kichkina bola edim. Boshyalang, oyoqyalang otamning eshagiga mingashib, bozorga borgan dim. Qahatchilik yillari edi. Bozor to'la odam, lekin xarid qilishga mahsulot yo'q. Otamning izidan ergashib yuribman. Ko'nglimda, qani bir parcha non bo'lsa, degan o'y yuribdi. Ko'zim molning terisini yo'yib, ustiga pechakqand to'kib sotayotgan barzangiga tushdi. Bola bo'lganim uchunmi, ko'zimni qanddan uzolmadim. Shu payt sotuvchi yonida oyoqlarida xrom etik, egnida beqasam to'n, beliga yangi shohi belbog' bog'lagan xushbichim kishi paydo bo'ldi. U

belbog'ini yechib, sotuvchiga uzatdi. Adashmasam, u o'shanda ikki kilolar atrofida pechakqand sotib olgandi. Men esa undan ko'zimni uzmasdim. Pechakqand bog'lagan ro'molni ko'tarib ketayotganida bir donasi yerga tushdi. Xaridor uni ko'rdi. Lekin engashib yerdan olmadim. Xudo berdi, deya yugurib borib uning tuprog'ini puf-puflab og'zimga solishimni bila-man, shu payt yuzimga zarb bilan tushgan tarsakidan og'zimdag qand otilib ketdi. Og'iz, burnim qonga to'ldi. Dod solib yig'lashga tushdim.

Tepamda azroildek barzangi sotuvchi turardi. Qiy-chuvdan bir zumdada atrofimni odamlar qurshab olishdi. Otam Karim merganning bo'ylari ikki metrdan baland edi. Men u kishining kichrayib qolganlarini o'shanda ko'rdim. Bir chetda gunohkordek qaddi dol, boshi xam bo'lib turardi. Qayerdandir pechakqand sotib olgan kishi yetib keldi. Uning rang-quti o'chgandi. Xaridor sotuvchining yuziga g'azab bilan tikilib dedi:

- Bu bola men xarid qilgan qanddan yerga tushganini olgandi. Nega bunday qilding?!

Barzangi dovdirab javob topolmadi. Xaridor qahr bilan uning pechakqandlarini chor-atrofga sochib yubordi. Bir nechta mening ham oyoqlarim ostiga tushdi. Oyoqlarimni ilon chaqayotgandek dag-dag titrardim. Olomon sotuvchiga rosa dashnom berdi. Otam esa yo'lda:

- Ochlikdan o'ldingmi? - deya meni yana kaltakladi...

O'shandan so'ng oradan qariyb ellik yil o'tgan bo'lsa ham, biron marta bozorga borganimda ovqatlanmadim. Xarid qilgan narsamni ta'mini uyga kelib to'lib ko'radigan bo'ldim. Barzangining tarsakisi menga dars bo'ldi. Nafsimni tiyib, halol yashashni o'rgandim...

Otamning hikoyasi qanday poyoniga yetganini bilmayman. Pechakqand sotayotgan barzangi mening yuzimga tarsaki tushirgandek oqayotgan ko'z yoshlarimni to'xtatolmasdim...

AXTAMQULI

odam nihoyatda gavjum edi. Otamning etagidan tutib urilib-surilib borayapman. Har-har zamonda «po'sh, arava...» degan so'zdan sergaklanaman. Biz bugun onam tayinlaganidek opamning to'yiga ko'proq qand-qurs xarid qilishimiz kerak. Otam qo'lda qop, rastada hisobsiz yoyilgan shirinliklarga salmoqlab razm soladi. Ularni siqimlab-siqimlab ko'radi. Sotuvchi amakilar har qadamda: - Tatib ko'ring, ta'miga gap yo'q, otaxon, - deya unga shirinlik uzatishadi. Otamning avzoyi buzilib, qandolatchilarning



«Kamalak» jamoasi g'olib

Toshkent shahar, Olmazor tumani «Kamolot» YOIH loyihasi ostida futbol bo'yicha «Kamolot» kubogi turniri o'tkazildi. Dastlab «Yoshlik» talabalar shaharchasining sport majmuasida tumandagi 34 ta umumta'lim maktablari jamoalari ishtirokida chorak final saralash bosqichlari bo'lib o'tdi.

Tumanning «Istiqlol» sport majmuasida esa to'rtta jamoa o'rtasida tuman g'olibini aniqlash musobaqalari bo'lib o'tdi.

Omad «Kamalak» jamoasiga (191-maktab, murabbiy Anna Kolujiina) kulib boqdi. 2-o'rin «Saxovat» (196-maktab, murabbiy Farhod Tojiyev), 3-o'rin «Bunyodkor» (315-maktab, murabbiy Davron Meliqo'ziyev), 4-o'rin «Lochin» (326-maktab, murabbiy Dilshod To'laganov) jamoalariga nasib etdi. 1-o'rin sohibi kubokni qo'lga kiritib, shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. G'oliblarga faxriy yoriq hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

– Bir necha yildan buyon maktabimizdagi futbol to'garagiga qatnashib kelaman, – deydi «Saxovat» jamoasi sardori, kubokning «Eng yaxshi o'yinchi» nominatsiyasi sovrindori Saidjon Saidjonov. – Bizning jamoamiz ham bu tumirda muvaffaqiyatli qatnashdi, deb faxr bilan ayta olaman.

8–9-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan o'yinchilarimiz tuman, shahar, respublika tumirlarida g'oliblikni qo'lga kiritib kelyapti. Muhammadsafo Ziyayev, Shamshodbek Tilovov, Sanjar Umarov, Aziz G'aniyev kabi do'stlarim bilan futbolni jon dildan seva-

miz. Taniqli futbol klublarining o'yinlarini, turli chempionatlarni miriqib tomosha qilamiz. Futbolni dunyo maydonlari yulduzlari kabi san'at darajasida o'ynash barcha do'stlarimning orzusi. Tengdoshlarimga ham sport bilan do'stlashing, jismonan chiniquasiz, kayfiyatingiz chog' bo'ladi, deb qolaman.

Nodira NAZAROVA



N. SULTONOV o'lgan suratlari.

ISHONCHINGIZNI OQLAYMIZ

Ustoz... Bu so'zni eshitganingizda beixtiyor ko'z oldingizda otanadek g'amxo'r inson siymosi gavdalanadi. U qalbingizda ona Vatanga, oilaga muhabbat va sadoqat kabi chin insoniy tuyg'ularni shakllantiradi. Bir so'z bilan aytganda, murabbiy qo'llarimizdan tutib, orzu qilgan manzillarimiz sari yetaklaydi.

Ana shunday fidoyi insonlardan biri Bahodir Sariyev bo'lib, u 2001-yilda Xonqa karate sport klubini tashkil qilishda alohida jonbozlik ko'rsatgan. Hozirgi kunda u klub rahbari va viloyat karate federatsiyasi Vitse-Prezidenti sifatida faoliyat yuritmoqda. Ustozning shogirdlari respublika va xalqaro musobaqalarda faxrli o'rinlarni muntazam egallab kelmoqda. Jumladan, Shohrux Qalandarov karate bo'yicha Malayziyada bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi. Sabohat Rohatova sportda erishgan yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Sherzod Allaberganov, Husniya Sobirova esa O'zbekiston chempioni, xalqaro musobaqalar g'olibiga aylandi.

Kelajakda, albatta, ustozimizning ishonchini oqlab, Vatanimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishga va'da beramiz.



Sohiba QOZOQOVA,
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi chempioni

Gulshahri Namanganda «Kamolot» TUR IX milliy yoshlar velomarafonining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.



NAMANGAN SHAHRI VELOPOYGACHILARI BIRINCHI!

Shaharning «Sof-savdo» majmuasidan «Tinchlik maydoni» yo'nalishi bo'yicha davom etgan musobaqada 108 nafar mahalliy bosqichda g'olib bo'lgan hamda 648 nafar havaskor velopoygachilar g'oliblik uchun bellashdi.

Viloyat Velosport federatsiyasining malakali hakamlar hay'ati velomarafonni adolatli baholab borishdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 9–14 yosh toifasi bo'yicha 1-o'rin Namangan shahridan Akbar Nuriddinov egalladi. 15–17 yoshlilar o'rtasidagi bellashuvda 1-o'rin Namangan shahridan bo'lgan Umid Ikromovga, 18–30 yosh toifasida ham 1-o'rin shaharlik Shuhrat Hojiyevga nasib etdi.

2000 nafardan ziyod o'quvchi-yoshlar qo'llab-quvvatlab turgan mazkur musobaqada «Faxriy poygachi», «Eng mahoratchi texnik poygachi», «Eng yosh poygachi» nominatsiyalari g'oliblari ham tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shukrulla G'ULOMOV

Gap kim haqida ketayotganini bilmoqchimisiz? Biz ham dastlab jusasiga nisbatan ancha katta yutuqlarni qo'lga kiritishga ulgurgan bolakayning yoshini so'radik.

U HALLI O'yoshda...

– Ismi-sharifim Shohjahon Furqatzoda, yoshim oltida. Poytaxtimizdagi «Saxovat» sport klubidagi Humoyun Ikromxo'jayev rahbarlik qilayotgan taekvando VTF sport seksiyasiga 4 yoshimdan beri qatnayman, – deya o'zini tanishtirdi u. Uning qancha yutuqlarni qo'lga kiritgani haqida esa onasi Durdona opadan so'rab oldik.

– O'g'lim shu kunga qadar 10 ga yaqin musobaqalarda qatnashib, qo'li baland keldi. Uning bu sport turi bo'yicha qo'lga kiritayotgan yutuqlari nafaqat bizni, hatto tumanimizdagi ham to'liqlantirib yubordi. O'g'lim Yunusobod hokimiyati tomonidan Mustaqilligimizning 25 yilligiga diplom hamda Prezidentimiz asarlari to'plami bilan taqdirlandi. O'tgan yili «Minnatdorchilik xati» bilan taqdirlangandi. Bu esa o'g'limga qanot bag'ishladi va u o'z ustida jiddiy shug'ullanib, bundan-da yuksak natijalarni qo'lga kiritishga harakat qilishni boshlab yubordi.

Oramizda Shohjahonga o'xshagan bolalar juda ko'p. Ularga yaratilayotgan imkoniyatlarga, sharoitlarga esa havas qilsa, arzaydi. Bolalarga bildirilgan o'zgina rag'bat, e'tibor ularga qanot bag'ishlaydi. Ana shu yoshlar orasida esa Shohjahonning ham borligi bizni juda quvontiradi.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Toshkent Matbaa va noshirlik kasb-hunar kollejining 1-bosqich o'quvchisi

Og'ageldi ALLANAZAROV,
Turkman shoiri



QUYOSH QAYDA UXLAYDI?

Ufqni kuzatardim,
Ya'ni quyosh botishin.
Lekin hamon bilmayman,
Uning qayda yotishin.
Oftobning yotar joyin,
Aniq bilish o'yida.
Bir kun atay kechgacha,
Kezdim dengiz bo'yida.
Kechki payt bobo quyosh,
Sho'ng'ib ketdi dengizga.
Kitlar bilan uxlaran,
Buyog'in aytсам sizga.



QIYIN EKAN

Azaldan Ilyosbekning,
Gap turmaydi ichida.
— Xo'p deng, oyi, o'qiyin
Besh yoki oltinchida.
Hattoki yettinchiga,
O'tay, nega deganda.
Birinci sinf axir,
Juda qiyin ekan-da...

Tursunboy ADASHBOYEV tarjiması

Adabiyotga, rassomlik yoki hunarmandchilikka, qo'yingki, ijodga qiziqqan har bir farzandda ajoyib bir xislat mavjud. Bolalarcha beg'ubor va samimiyat bilan yaratilgan ijod namunalarini yer-u ko'kka ishonmaydilar. Ular nazdida bu narsa eng mukammal va bebaho sanaladi. Aslida ham shunday. Shu bois, bolajonlar ijod namunalarini kuzatganda biz ham yayrab ketamiz.

Poytaxtimizdagi 131-umumta'lim maktabiga qatnay boshlagan Nodira boshqa fanlar qatori rasm chizishga o'zgacha ixlos bilan yondashardi. Onasi Barmo opa qizchasini bu qiziqishini payqamay qolmadi. Uning har bir chizgan rasmini erinmay kuzatib bordi.

7-sinfdan boshlab esa Nodiraning rassom bo'lish ahdı yanada qat'iylashdi. «Barkamol avlod» bolalar markaziga qatnab, rasm to'garigidagi katta tajribaga ega ustozlardan saboq ola boshladi. O'z navbatida bu qiziqish va ishtiyoq samarasini bera boshladi. «Kamalak» yulduzlari» bolalar




ijodiyoti festivalining tuman, shahar va respublika bosqichi g'olibi bo'ldi.


Yana bir qiziq jihati, Nodira qadimiy xumlar, ko'zalar, tarixdan so'zlovchi asori-atiqalarni chizishga qiziqadi. Buyuk ajdodlarimiz zakosidan yaralgan bu bebaho yodgorliklar qarshisida soatlab turib zerikmaydi. Har gal ko'liga qalam olar ekan, ota-bobolarimiz yaratgan san'at asarlarining bejirimligidan hayratga tushadi.

Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, Repin va Akmal Nur ijodining shaydosi bo'lgan Nodira

YOG'DULARDA TARIX NAFASI



Natyurmort



Bolalik

Shavkatova ayni chog'da Respublika rassomlik kollejining III bosqich o'quvchisi. Uning orzulari o'zi kabi beg'ubor. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o'zi tanlagan soha bo'yicha puxta bilim olish. Intiluvchan qizimizning orzulari ushalishi shubhasiz. Zero, xalqimizda «Intilganga tole yor», degan hikmatli so'zlar bekorga aytilmagan.

Yusuf ABDULLAYEV.
H.HAMIDULLAYEV olgan surat


BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

KROSSVORD

Bo'yiga:

1. Sigirning bolasi.
3. Odim.
4. Sabzavot.
6. Falak.
7. Tong.
10. Tantiq.
11. Tuya bolasi.

12. ...lik tuman boylık.
16. Obihayot.
17. Geometrik shakl.
18. Qulog'i eshitmas.
19. Aziz ne'mat.
23. Bosh. 24. Tuyaning beli.
28. Erta gullovchi daraxt.
29. Ishsiz. 32. Yel.



Eniga:

2. Olov qoldig'i.
5. Sabot, chidam.
8. Kino mukofot.
9. Meva urug'i.
13. Qimmat emas.
14. Odam a'zosi.
15. Belbog'.
20. Milliy sport.
21. Qadimiy qurol.
22. Ovqat

pishirish idishi.

25. O'quv yili bo'limi.
26. Oyoq qismi.
27. Cho'pchak.
30. Qimmatbaho tosh.
31. Daraxt turi.
33. Uy, hovli.
34. Tanadagi suyuqlik.

Tuzuvchi:

Fayzulla ABDULLAYEV

Pazanda qizga!



Bolajonlar, bugun tavsiya qilayotgan salatimiz salqin kunlarda kishiga darmon

bag'ishlaydi. Uni tayyorlab ko'ring, ishonamizki, u sizlarga ma'qul bo'ladi.

DARMONDORILI SALAT

Kerakli masalliq: karamning 4/1 bo'lagi, lahm tovuq go'shti, yarim bog' shivit, tuz, qora murch.

Tayyorlanishi: ishni tovuq go'shtini pishirishdan boshlaymiz. Go'sht pishgunga qadar karam, shivitni mayda to'g'rab, tuz solib aralashtirib qo'yamiz. Pishgan tovuq go'shtini sovutib, u ham boshqa mahsulotlar singari mayda to'g'raladi va o'simlik yog'i, murch qo'shib aralashtiriladi. Darmondorilarga boy salatimiz tayyor!

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

3-oktyabr 2016

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz AADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzillimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 25 601
Buyurtma - S 7136

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08